d) muntazam psixologik ma’rifat va psixoprofilaktika ishlarini olib borish;

e) ilmiy asoslangan empirik tadqiqotlarni davom ettirish.

Umuman olganda, talabalarda stressni boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish ta’lim jarayoniga moslashish, ruhiy farovonlikni qo‘llab-quvvatlash va o‘quv faoliyatini samarali tashkil etishda muhim ahamiyatga ega deyish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Мещеряков Б.Г. Большой психологический словарь / Б.Г. Мещеряков. – М.: Прайм-Еврознак, 2008. – 481 с.

2. Selye H. The Stress of Life. – New York: McGraw-Hill, 1956.

3. Lazarus R.S., Folkman S. Stress, Appraisal and Coping. – New York: Springer Publishing Company, 1984. – 445 p.

4. World Health Organization. Doing What Matters in Times of Stress: An Illustrated Guide. – Geneva: WHO, 2020.

5. Arakulov, G. T. (2026). O'SMIRLIK DAVRIDA KECHADIGAN IJTIMOIY PSIXOLOGIK MEXANIZMLAR. *Konferensiyalar*, *1*(1), 334-337.

6. Arakulov, G. (2026, March). SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF AGGRESSIVENESS IN ADOLESCENCE. In *Scientific practical conference* (Vol. 1, No. 3, pp. 434-436).

7. Norbekova, B., Komilova, A., Arakulov, G., & Adilova, M. (2024, June). Formation of Network Attack Detection System Architecture. In *International Conference on Inventive Communication and Computational Technologies* (pp. 431-440). Singapore: Springer Nature Singapore.

8. Arakulov, G. (2023). O ‘SMIR YOSH QATLAMIDAGI BOLALARDA AGRESSIYA VA UNING SABABLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, *3*(2).

9. Разногорская, М., & Аракулов, Г. (2026, May). СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ПРОЯВЛЕНИЯ АГРЕССИВНОСТИ У ПОДРОСТКОВ. In *Conferences* (Vol. 1, No. 5, pp. 85-90).

O‘SMIRLIK DAVRIDA QOBILIYATLARNI YUZAGA CHIQARISH VA RIVOJLANTIRISHDA OILAVIY MUHITNING O‘RNI

Berdiyeva Dilnoza A’zamovna

Jizzax viloyati Pedagogik mahorat markazi “Pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari kafedrasi” o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola o‘smirlik davrida shaxs qobiliyatlarini yuzaga chiqarish va rivojlantirish jarayonida oilaning o‘rni va ahamiyatini o‘rganishga bag‘ishlangan. Maqolada o‘smirlik yoshining psixofiziologik xususiyatlari hamda ularni bartaraf etishda ota-onalarning pedagogik-psixologik yondoshuvlari tahlil qilinadi. Shuningdek, oilaviy muhitning farzand ijodkorligi, mustaqilligi va kasbiy moyilliklarini shakllantirishdagi ta’siri ochib berilib, oila va maktab hamkorligini kuchaytirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: oila, qobiliyat, o‘smirlik davri, ijtimoiylashuv, motivatsiya, ota-ona va farzand munosabatlari, shaxs kamoloti, oilaviy muhit, shaxs, individual-psixologik xususiyatlar, tarbiya uslubi, o‘zini baholash, xavotirlilik.

Har bir inson jamiyatda o‘z o‘rnini topishi, muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi va jamiyat taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shishi uning imkoniyatlari, ya’ni qobiliyatlarining qay darajada ochilganligiga bevosita bog‘liq sanaladi. Har bir bola dunyoga ulkan qobiliyatlar bilan dunyoga keladi. Biroq insonning tug‘ma moyilliklari o‘z-o‘zidan rivojlanib ketmaydi. Ularning yuzaga chiqishi va yuqori pog‘onaga — iste’dod darajasiga ko‘tarilishi uchun muayyan ijtimoiy muhit va sharoitlar zarur bo‘ladi. Bu borada oila hal qiluvchi va boshlang‘ich poydevor hisoblanadi. Bolalikdan to mustaqil hayotga qadam qo‘yish davrigacha — ayniqsa, qiziqishlar shiddat bilan shakllanadigan o‘smirlik davrida oilaviy muhitning ta’siri katta ahamiyatga egadir.

Inson hayotidagi eng murakkab, shiddatli va ayni paytda eng mas’uliyatli davrlardan biri bu — o‘smirlik davridir. Bu vaqtda organizmda gormonal o‘zgarishlar yuz berib, o‘smir o‘zini yangicha his qila boshlaydi. Mustaqillikka intilishi, tengdoshlari bilan muloqot qilish ehtiyojining kuchayishi va kattalar tomonidan tan olinishni xohlash bu davrning asosiy belgilaridan sanaladi. Psixologlarning ta’kidlashicha, aynan shu yoshda bolalarda turli sohalarga (sport, san’at, aniq fanlar, texnika, adabiyot va boshqalar) nisbatan yashirin qobiliyatlar faollasha boshlaydi. Biroq, bu qobiliyatlar o‘z vaqtida payqab olinmasa yoki ularni rivojlantirish uchun zarur sharoitlar yaratib berilmasa, bolalarda so‘na boshlashi ham mumkin.

Fransuz faylasufi Jan-Jak Russo o‘smirlikni inson hayotidagi “ikkinchi tug‘ilish” deb ta’riflagan. Haqiqatdan ham, bu davrda bola jismoniy o‘zgarish bilan birgalikda, ruhiy jihatdan ham o‘zini topishga, jamiyatda o‘z o‘rnini egallashga intiladi. Aynan shu davrda bolaning ichki olamida ulkan energiyaga to‘lib toshadi: kimdir ijodga (she’riyat, rasm, musiqa), kimdir aniq fanlarga, kimdir sport yoki liderlikka intilishni boshlaydi. Biroq, bu yoshdagi bolalar juda ta’sirchan, tanqidga o‘ta sezgir va o‘ziga bo‘lgan ishonchi o‘zgarib turuvchi bo‘lishadi. Agar o‘smirni to‘g‘ri yo‘naltirib, qilgan xatolarini kechirib, har bir kichik yutug‘ini qadrlab, oilada qo‘llab-quvvatlash tizimi bo‘lmasa, uning noyob iste’dodi yashirin qolib ketib butunlay so‘nib qolishi mumkin.

Psixologiyada qobiliyatlar deb insonning biror-bir faoliyatini muvaffaqiyatli, yuqori sifat bilan bajarishini ta’minlaydigan individual-psixologik xususiyatlarga aytiladi. Oilaviy muhitning quyidagi jihatlari o‘smir qobiliyatlarini rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega: psixologik xavfsizlik va ishonch muhiti, qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlash hamda mustaqillikni shakllantirish.

Qobiliyatlarning rivojlanishi ko‘p jihatdan quyidagilarga bog‘liq: oilaviy muhit, ta’lim-tarbiya, faoliyat va maqsadli harakatdir. Tabiiy moyilliklar qanchalik yuqori bo‘lmasin, agar ularni rivojlantiruvchi muhit ya’ni eng avvalo, oila mavjud bo‘lmasa, ular so‘nishi yoki namoyon bo‘lmasdan qolib ketishi mumkin. Oila esa bolaga ilk bor ko‘mak beradigan, rag‘batlantiradigan va yo‘naltiradigan muhit sanaladi. Bu jarayonda oilaning roli quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

-Bolaning qiziqishlarini o‘z vaqtida payqash va qo‘llab-quvvatlash. Ko‘p hollarda o‘smir yoshidagilar o‘zlaridagi yashirin bo‘lgan biron bir faoliyatga bo‘lgan layoqatni darhol anglay olishmaydi. Ota-onalarning kuzatuvchanligi esa bu jarayonda muhim. Bolaning kichik bir qiziqishini masalan, kitob o‘qishi, rasm chizishi yoki konstruktor yig‘ishga moyilligi bo‘lsa buni o‘z vaqtida payqab, unga oilada sharoit yaratib berish to‘garaklarga qatnashtirish uning qobiliyatini yanada ochishga yordam beradi.

-Psixologik qo‘llab-quvvatlash va motivatsiya. O‘smirlik davrida bolada o‘z kuchiga ishonchmaslik, “eplolmay qolsamchi” degan qo‘rquv tez-tez uchrab turadi. Oilada ota-ona tomonidan bolaga nisbatan ijobiy munosabat yaratib berilishi, uning kichik yutuqlarini ham maqtash, o‘smirda motivatsiyani yanada kuchayishiga sabab bo‘ladi. Bola agarda muvaffaqiyatsizlikka uchrab qolsa, uni tanqid qilish emas, balki “hechqisi yo‘q, keyingi safar albatta uddalaysan” deya ruhlantirish bolaning qobiliyatini yanada rivojlanishiga xizmat qiladi.

-Oilada moddiy va tashkiliy sharoitlarni yaratib berish. Qobiliyatlarni rivojlantirish muayyan sharoitlarni talab etadi. Masalan bolaning qobiliyatiga qarab, bolaga musiqa asbobimi, sport anjomlarimi, sifatli kitoblar yoki maxsus kurslar oilaning imkoniyatlari doirasida ta’minlanishi kerak. Afsuski, ba’zi oilalardagi nosog‘lom muhit yoki ota-onalarning noto‘g‘ri yondashuvlari o‘smirning qobiliyatlarini rivojlantirish o‘rniga ularni so‘ndirib yuborishiga sabab bo‘lyapti:

-Ota-onalar o‘z orzularini farzandiga yuklashi. Ba’zi ota-onalar o‘zlari erishmagan yoki o‘zlari orzu qilgan kasbni farzandida ko‘rishni istab ularni shu kasbni egallashiga majburlashga harakat qilishadi masalan, san’atga qiziqishi bo‘lgan o‘smirni majburan tibbiyotga yo‘naltirish. Bunday bosim va majburlash o‘smirda ichki qarshilikni, charchoq hamda ruhiy zo‘riqishni keltirib chiqishiga sabab bo‘ladi.

-Ota-onaning beparvoligi va e’tiborsizligi. Ota-onalar tomonidan o‘smirning ijodiy yoki ilmiy qiziqishlariga “bular bekorchi narsalar, avval darsingni qil” deb loqayd qarab uning layoqatini hisobga olmaslik uning qiziqishlarini so‘ndirib yuboradi.

- Ota-onaning qattiqqo‘llik va tanqid qilishi. Muntazam ravishda o‘smir yoshidagi bolaga “Sening qo‘lingdan hech narsa kelmaydi”, “Uddala olmaysan” kabi uning shaxsiga nisbatan beriladigan salbiy baholar o‘smirlik yoshidagi farzandning o‘ziga bo‘lgan ishonchini yo‘qotishiga sabab bo‘ladi.

Bunday holatlarni oldini olish uchun o‘smirlik yoshidagi farzandi bilan muloqot qilishda ota-onalardan katta pedagogik mahorat talab etiladi. Bunday vaziyatlarda ota-onalar quyidagilarga e’tibor qaratish lozim bo‘ladi: buyruqbozlik o‘rniga hamkorlik munosabatlarini o‘rnatishi, o‘smirlik yoshidagi farzandini fikrini inobatga olib tinglay olishi hamda uning shaxsiyatini hurmat qilishi, bolaning muvaffaqiyatsizliklarini fojia deb qabul qilmasdan, ulardan to‘g‘ri xulosa chiqarishga o‘rgatishi, o‘qituvchilar va to‘garak rahbarlari bilan fikr almashgan holda farzandingizning iste’dodini to‘g‘ri yo‘naltirishi, farzandlarni boshqalar yoki uning tengdoshlari bilan solishtirmasdan, faqatgina uning oldingi yutuqlari bilan solishtirishi bolani o‘ziga bo‘lgan ishonchini va qobiliyatini namoyon qilishiga sabab bo‘ladi. Darhaqiqat, har bir bola o‘ziga xos olam va takrorlanmas iste’dod

egasidir. O‘smirlik davridagi qo‘llab-quvvatlash kelajakdagi muvaffaqiyatning poydevori hisoblanadi. Oila nafaqat moddiy sharoit yaratuvchi, balki ma’naviy qanot beruvchi maskandir. Ota-onaning mehrli nigohi va o‘z vaqtida aytilgan rag‘bat so‘zlari o‘smirga tog‘larni talqon qilishdek kuchni va har qanday cho‘qqini zabt etishga yetarli kuch berishiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Bo‘riyev I. I. Oila psixologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
2.Shoumarov G‘.B. Oila psixologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
3.Haydarov F. I., Xalilova N. I. Psixologiya. – Toshkent: TDPU, 2019.
4.Выготский Л. С. Педагогическая психология. – Москва: Педагогика, 1991.

TUPROQQA ISHLOV BERISH MASHINALARI HAMDA ISHCHI ORGANLARINING RIVOJLANISH TARIXI

Nuraliyev To‘lqin Alimardanovich
Katta o‘qituvchi, O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
nuraliyevtulkin86@gmail.com

Annotatsiya. Tuproqqa ishlov berishning ko‘p yillik tarixida, insonlarning mashaqqatli mehnatni yengillashtirishga intilib turli xil geometrik shakl va ishchi sirtlariga ega bo‘lgan ibtidoiy asbob-uskunalar va asboblarni yaratdilar, ularni mavjud usul va vositalar bilan moslashtirdilar va qayta ishladilar, bu jaroyon hozir ham davom etmoqda.

Kalit so‘zlar: sikloid kontur, prototip, ibtidoiy konfiguratsiya, protektsionistik siyosat, vintli otval, egri otval, yaroqsizlikka chiqarish.

Qadimgi quldorlik jamiyatidan boshlab bizgacha yetib kelgan keng qamrovli agronomik, texnikaviy va ixtisoslashtirilgan qishloq xo‘jaligi adabiyotlarida o‘sha uzoq davrdagi har qanday tuproq ishlov berish va ekish qurollari dizayni tasvirini behuda izlagan bo‘lardik [1]. Qadimgi ketmonchilik davri, bir chimdim urug‘ olib, barmoqlaridan ketmon bilan qazilgan chuqurga sepgan odam o‘tmishda qoldi. Dalaga urug‘larni ekish inson qo‘li bilan amalga oshirilgan va ularni birlashtirish birinchi navbatda hayvonlarning oyoqlari yoki keyinroq tirma bilan amalga oshirilgan. Qadimgi Misr piramidalari devorlaridagi rasmlar misrliklar orasida ekishdan oldin tuproq ishlov berish va ekish texnikasi haqida aniq tasavvurga ega: qullar dala bo‘ylab omochni sudrab ketishdi, shundan so‘ng urug‘chi savatdan bir hovuch don olib, haydalgan maydonga sochdi. V.P. Goryachkin, P.U. Baxtin, V.V. Vasilenko, V.R. Uilyams ta‘kidlashicha, ibtidoiy mehnat qurollari daraxt shoxi, tayoq, ilgak yoki o‘tkir tosh kabi tabiiy shaklga ega bo‘lgan [2, 3, 4, 5, 6]. V.P. Goryachkin va Rau shudgorni takomillashtirishda etti bosqichdan iborat mantiqiy sxemani ko‘rsatdilar (1.1-rasm). Birinchi bosqichda (1.1a-rasm) egri chiziqli shakldagi o‘tkir qoziq ishlov berish uchun vosita bo‘lib xizmat qildi. Bunday asbobning tasvirlari Sirakuza (Sitsiliya) va Etruriyada topilgan. Ikkinchi bosqichda (1.1b-rasm) egri chiziqli shakldagi yog‘och novdaga nazorat qilish uchun tutqich